



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2024- yil
yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-iyul)



**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlik
ulushi -
69,3%**



**Aholi jon
boshiga
xizmatlar
hajmi –
6 799,9
ming. so'm**




**Xizmatlar
sohasidagi
korxona va
tashkilotlar
ulushi - 69,7%**




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

Soni, birlikda





Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar

(1- iyul holatiga ko'ra)



Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar
(yanvar-iyul)

Soni, birlikda



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(1- iyul holatiga ko'ra)

Soni, birlikda
23 000

2024

23 000

2023

24 122

2022

27 680

2021

25 153

2020

20 569

65,2%

2024

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi

2020

55,1%

Soni, birlikda

2 662

2024

2 834

2023

2 496

2022

3 018

2021

2 621

2020

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari (yanvar-iyul)

2024

65,5%


Jami yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi

58,4%

2020


Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-iyul)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi

(2024- yil yanvar-iyul)



¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2020-2023- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan


Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-iyul)

Hudud	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>%da</i>	O'sish sur'ati, <i>%da</i>
Toshkent viloyati ¹⁾	20845,8	100,0	113,1
Nurafshon sh.	554,7	2,7	112,6
Olmaliq sh.	1489,5	7,1	113,4
Angren sh.	1386,5	6,7	113,7
Bekobod sh.	1018,3	4,9	113,7
Ohangaron sh.	473,4	2,3	112,8
Chirchiq sh.	1783,1	8,6	113,5
Yangiyo'l sh.	963,8	4,6	112,9
Oqqo'rg'on t.	555,0	2,7	112,9
Ohangaron t.	309,4	1,5	113,5
Bekobod t.	624,6	3,0	112,0
Bo'stonliq t.	1293,2	6,2	114,0
Bo'ka t.	613,9	2,9	112,4
Quyi Chirchiq t.	417,7	2,0	111,9
Zangiota t.	2057,8	9,9	113,1
Yuqori Chirchiq t.	899,3	4,3	113,9
Qibray t.	1752,0	8,4	113,2
Parkent t.	794,9	3,8	112,7
Piskent t.	320,6	1,5	112,6
O'rta Chirchiq t.	678,2	3,3	112,3
Chinoz t.	578,0	2,8	112,7
Yangiyo'l t.	1028,3	4,9	112,3
Toshkent t.	1253,3	6,0	113,4

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-iyul)



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar-iyul)

Hudud	Hajmi, ming. so'mda	O'sish sur'ati, %da
Toshkent viloyati	6 799,9	111,0
<i>shaharlar:</i>		
Nurafshon	9 818,5	108,8
Olmalik	10 125,7	110,0
Angren	7 568,3	111,5
Bekobod	9 716,5	111,4
Ohangaron	11 408,0	111,2
Chirchiq	10 277,5	110,5
Yangiyo'l	11 220,0	108,4
<i>tumanlar:</i>		
Oqqo'rg'on	4 929,3	111,0



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar-iyul)

Hudud	Hajmi, ming. so'mda	O'sish sur'ati, %da
Ohangaron	2 770,3	111,4
Bekobod	3 755,6	110,4
Bo'stonliq	7 302,1	113,1
Bo'ka	4 547,1	110,9
Quyi Chirchiq	3 588,8	110,2
Zangiota t.	11 950,2	110,3
Yuqori Chirchiq	6 428,4	112,2
Qibray	9 949,1	111,6
Parkent	4 438,5	110,7
Piskent	3 146,5	112,9
O'rta Chirchiq	4 917,9	110,1
Chinoz	3 956,3	110,6
Yangiyo'l	5 118,4	110,6
Toshkent	6 269,9	110,0

2024- yilning yanvar-iyul oylarida hududlar kesimida aholi jon boshiga eng yuqori xizmatlar hajmi Zangiota tumanida **11 950,2** ming. so'mni tashkil etdi va uncha yuqori bo'lmagan aholi jon boshiga xizmatlar hajmi Ohangaron tumanida **2 770,3** ming. so'mga to'g'ri keldi.


Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-iyul)

Nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
Xizmatlar – jami	20 845,8	100,0	113,1
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	804,7	3,9	120,7
Moliyaviy xizmatlar	2 820,0	13,5	105,3
Transport xizmatlari	4 377,3	21,0	112,9
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	3 989,0	19,1	112,8
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	963,6	4,6	108,0
Savdo xizmatlari	7 024,2	33,7	115,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	618,5	3,0	110,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	752,7	3,6	176,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	620,9	3,0	112,6
Ijara xizmatlari	523,0	2,5	100,8
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	454,2	2,2	108,4
Shaxsiy xizmatlar	631,9	3,0	109,1
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	401,6	1,9	96,6
Boshqa xizmatlar	853,4	4,1	111,0

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan Toshkent viloyatida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.


Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(yanvar-iyul)



Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2024- yil yanvar-iyul)




Toshkent viloyatida moliyaviy xizmatlar hajmi **282,1** mlrd. so'mga oshib, **2 820,0** mlrd. so'mga yetdi. Umumiy bozor xizmatlari hajmida ushbu xizmatlarning ulushi **13,5 %**ni tashkil etdi. Jami moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati **105,3 %**ni tashkil etdi.

Transport xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-iyul)

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **91,1%**.



Hududlar kesimida transport xizmatlari

(2024- yil yanvar-iyul)

Hudud	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
Toshkent viloyati	4 377,3	100	112,9
shaharlar:			
Nurafshon	106,3	2,4	109,4
Olmalik	313,2	7,2	113,3
Angren	337,1	7,7	114,5
Bekobod	170,0	3,9	110,5
Ohangaron	89,1	2,0	109,6

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Hududlar kesimida transport xizmatlari (2024- yil yanvar-iyul)

Hudud	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>%da</i>	O'sish sur'ati, <i>%da</i>
Chirchiq	300,4	6,9	114,3
Yangiyo'l	249,2	5,7	113,7
tumanlar:			
Oqqo'rg'on	122,7	2,8	109,7
Ohangaron	76,5	1,7	110,4
Bekobod	116,4	2,7	108,9
Bo'stonliq	172,8	3,9	114,8
Bo'ka	129,1	2,9	109,3
Quyi Chirchiq	194,9	4,5	108,8
Zangiota	206,4	4,7	114,9
Yuqori Chirchiq	277,4	6,3	110,7
Qibray	245,4	5,6	113,1
Parkent	232,3	5,3	109,6
Piskent	123,6	2,8	109,5
O'rta Chirchiq	156,9	3,6	109,2
Chinoz	143,8	3,3	109,6
Yangiyo'l	385,6	8,8	114,1
Toshkent	228,2	5,3	110,2

Yangiyo'l tumanida transport xizmatlari hajmi **385,6** mlrd. so'mni tashkil etdi. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **114,1** %ni tashkil etgan.



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

2024- yilning yanvar-iyul

oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rtidan uch qismini, ya'ni **65,9** foizni tashkil etdi.



Savdo xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-iyul)



Hududlar kesimida savdo xizmatlari

(2024- yil yanvar-iyul)



Hudud	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
Toshkent viloyati	7 024,2	100,0	115,3
shaharlar:			
Nurafshon	109,1	1,6	115,0
Olmalik	437,2	6,2	115,9
Angren	379,9	5,4	116,1
Bekobod	436,8	6,2	116,2
Ohangaron	173,8	2,5	115,2
Chirchiq	514,1	7,3	115,9
Yangiyo'l	411,9	5,9	115,3

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Hududlar kesimida savdo xizmatlari (2024- yil yanvar-iyul)


Hudud	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
tumanlar:			
Oqqo'rg'on	276,9	3,9	115,3
Ohangaron	109,9	1,6	116,0
Bekobod	242,2	3,4	114,4
Bo'stonliq	334,5	4,8	116,4
Bo'ka	321,1	4,6	114,8
Quyi Chirchiq	55,5	0,8	114,3
Zangiota	618,5	8,8	115,5
Yuqori Chirchiq	315,8	4,5	116,3
Qibray	540,2	7,7	115,6
Parkent	282,0	4,0	115,1
Piskent	61,7	0,9	115,0
O'rta Chirchiq	344,6	4,9	114,7
Chinoz	215,0	3,1	115,1
Yangiyo'l	392,3	5,6	114,6
Toshkent	451,2	6,3	115,8

Hududlar kesimida eng yuqori savdo xizmatlari hajmi Zangiota tumani hissasiga to'g'ri keldi (**618,5** mlrd. so'm). Ushbu hududning jami savdo xizmatlari hajmidagi ulushi **8,8** %ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-iyul)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari-ning umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024- yilning yanvar-iyul** oylarida ularning ulushi **77,0%** foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar-iyul)

Hudud	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
Toshkent viloyati	804,7	100,0	120,7
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	24,6	3,1	117,1
Olmalik	37,3	4,6	122,0
Angren	39,3	4,9	118,2
Bekobod	23,7	2,9	118,3
Ohangaron	13,3	1,7	117,3
Chirchiq	63,1	7,8	125,0
Yangiyo'l	11,2	1,4	117,4

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari


Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar-iyul)

Hudud	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>%da</i>	O'sish sur'ati, <i>%da</i>
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	23,8	3,0	117,4
Ohangaron	22,3	2,8	118,1
Bekobod	31,9	4,0	116,5
Bo'stonliq	50,2	6,2	123,5
Bo'ka	23,9	3,0	116,9
Quyi Chirchiq	22,3	2,8	116,4
Zangiota	104,2	13,0	124,6
Yuqori Chirchiq	26,2	3,3	118,5
Qibray	105,4	13,1	124,8
Parkent	25,0	3,1	117,3
Piskent	18,8	2,2	117,2
O'rta Chirchiq	35,1	4,4	116,9
Chinoz	29,8	3,7	117,2
Yangiyo'l	30,5	3,8	116,8
Toshkent	42,8	5,3	117,9

Hududlar kesimida eng yuqori aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi Qibray tumanida qayd etilgan (**105,4** mlrd. so'm) va ushbu hududning jami aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmidagi ulushi **13,1** %ni tashkil etdi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi ¹⁾

(yanvar-iyul)



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmi **2024- yil yanvar-iyul** oylarida jami **752,7** mlrd. so'mni hamda o'sish **+76,4 %**ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2024- yil yanvar-iyul)

Hudud	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
Toshkent viloyati	752,7	100,0	176,4
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	7,5	1,0	117,7
Olmalik	30,9	4,1	118,6
Angren	126,8	16,8	188,9
Bekobod	17,4	2,3	118,9
Ohangaron	7,1	0,9	118,0
Chirchiq	155,7	20,7	195,7
Yangiyo'l	19,7	2,6	118,0
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	8,6	1,1	118,0

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-iyul)

Hudud	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>%da</i>	O'sish sur'ati, <i>%da</i>
Ohangaron	3,4	0,4	118,7
Bekobod	6,1	0,8	117,2
Bo'stonliq	39,0	5,2	119,2
Bo'ka	7,1	0,9	117,6
Quyi Chirchiq	6,9	0,9	117,1
Zangiota	98,0	13,0	190,3
Yuqori Chirchiq	13,7	1,8	119,1
Qibray	116,3	15,5	195,4
Parkent	12,6	1,7	117,9
Piskent	3,8	0,5	117,8
O'rta Chirchiq	3,4	0,5	117,5
Chinoz	6,8	0,9	117,9
Yangiyo'l	5,0	0,8	117,4
Toshkent	56,9	7,6	188,6


Hududlar kesimida eng yuqori ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi Chirchiq shahrida qayd etilgan (**1155,7** mlrd. so'm) va o'sish sur'ati **195,7%** ni tashkil etdi. Eng kam ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi O'rta Chirchiq tumanida (**3,4** mlrd. so'm) qayd etilgan hamda o'sish sur'ati **117,5 %**ni tashkil etdi.



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi ¹⁾ (yanvar-iyul)

2024- yilning yanvar-iyul oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi jami **620,9** mlrd. so'mni tashkil etdi hamda o'sish **+12,6** %ga to'g'ri keldi.



Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-iyul)

Hudud	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
Toshkent viloyati	620,9	100,0	112,6
shaharlar:			
Nurafshon	21,6	3,5	113,9
Olmalik	33,3	5,4	111,7
Angren	24,4	3,9	112,0
Bekobod	28,1	4,5	112,0
Ohangaron	4,5	0,7	111,1
Chirchiq	68,6	11,1	115,8
Yangiyo'l	11,7	1,9	111,2
tumanlar:			
Oqqo'rg'on	4,3	0,7	111,2

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-iyul)

Hudud	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>%da</i>	O'sish sur'ati, <i>%da</i>
Ohangaron	1,2	0,2	111,8
Bekobod	3,8	0,6	110,4
Bo'stonliq	70,2	11,3	113,3
Bo'ka	2,6	0,4	110,7
Quyi Chirchiq	2,0	0,3	110,3
Zangiota	126,5	20,4	111,4
Yuqori Chirchiq	10,1	1,6	112,2
Qibray	42,0	6,8	111,5
Parkent	3,2	0,5	111,0
Piskent	2,0	0,3	110,9
O'rta Chirchiq	17,2	2,8	113,7
Chinoz	14,3	2,3	111,0
Yangiyo'l	20,6	3,3	110,6
Toshkent	108,7	17,5	114,7


Hududlar kesimida eng yuqori sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi Zangiota tumanida qayd etilgan (**126,5** mlrd. so'm) va o'sish sur'ati **111,4** %ni tashkil etdi. Eng kam sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi Ohangaron tumanida (**1,2** mlrd. so'm) qayd etilgan hamda o'sish sur'ati **111,8** %ni tashkil etdi.



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

2024- yilning yanvar-iyul oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – 75,8%.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi ¹⁾ (yanvar-iyul)



Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024- yil yanvar-iyul)

Hudud	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
Toshkent viloyati	963,6	100,0	108,0
shaharlar:			
Nurafshon	58,5	6,1	105,8
Olmalik	85,8	8,9	108,6
Angren	49,1	5,1	106,8
Bekobod	23,6	2,5	106,9
Ohangaron	44,8	4,6	106,0
Chirchiq	133,4	13,8	110,6
Yangiyo'l	24,9	2,6	106,1
tumanlar:			
Oqqo'rg'on	8,4	0,9	106,1

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024- yil yanvar-iyul)


Hudud	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>%da</i>	O'sish sur'ati, <i>%da</i>
Ohangaron	12,4	1,3	106,7
Bekobod	11,4	1,2	105,3
Bo'stonliq	89,8	9,3	109,1
Bo'ka	14,3	1,5	105,6
Quyi Chirchiq	9,3	1,0	105,2
Zangiota	113,3	11,8	109,2
Yuqori Chirchiq	47,0	4,9	107,0
Qibray	103,6	10,7	108,4
Parkent	22,2	2,3	105,9
Piskent	11,7	1,2	105,8
O'rta Chirchiq	16,7	1,7	105,6
Chinoz	13,0	1,3	105,9
Yangiyo'l	26,0	2,7	105,5
Toshkent	44,4	4,6	109,5

Hududlar kesimida eng yuqori yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi Chirchiq shahrida qayd etilgan (**133,4** mlrd. so'm) va jami hududlar kesimidagi ulushi **13,8 %**ni tashkil etdi. Eng past yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi Oqqo'rg'on tumanida (**8,4** mlrd. so'm) qayd etilgan hamda ulushi **0,9 %**ni tashkil etdi.



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-iyul)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **25,8** foizini tashkil etdi.

Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024- yil yanvar-iyul)

Hudud	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
Toshkent viloyati	454,2	100,0	108,4
shaharlar:			
Nurafshon	9,6	2,1	105,2
Olmalik	26,3	5,8	112,1
Angren	26,8	5,9	112,3
Bekobod	27,0	5,9	112,4
Ohangaron	13,9	3,1	103,5
Chirchiq	24,5	5,4	112,1
Yangiyo'l	18,9	4,2	104,5
tumanlar:			
Oqqo'rg'on	9,2	2,0	103,5

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024- yil yanvar-iyul)

Hudud	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>%da</i>	O'sish sur'ati, <i>%da</i>
Ohangaron	11,5	2,5	112,2
Bekobod	12,2	2,7	110,7
Bo'stonliq	24,2	5,3	112,6
Bo'ka	10,6	2,3	105,1
Quyi Chirchiq	10,8	2,4	102,6
Zangiota	54,8	12,1	111,7
Yuqori Chirchiq	18,3	4,0	112,5
Qibray	55,6	12,2	111,9
Parkent	17,5	3,8	111,4
Piskent	10,2	2,2	104,3
O'rta Chirchiq	10,7	2,5	111,0
Chinoz	12,4	2,8	102,4
Yangiyo'l	17,2	3,8	110,9
Toshkent	32,0	7,0	112,0

Hududlar kesimida eng yuqori kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari hajmi Qibray tumanida qayd etilgan (**55,6** mlrd. so'm) va o'sish sur'ati **111,9** %ni tashkil etdi. Eng past kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari hajmi Oqqo'rg'on tumanida (**9,3** mlrd. so'm) qayd etilgan hamda o'sish sur'ati **103,5** %ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning daromatlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Telekommunikatsiya xizmatlari bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.